



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 561,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,4 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 417,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 33,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 144,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 91,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 111,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 39,1 %) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mln. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 561,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 96,6 % ni tashkil etdi.








Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 83,7 % va yirik korxonalar hissasiga 16,3 % to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 37,2 % ulush bilan 952,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahar 1,4 % ulush bilan 35,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlari	
		2019-yil yanvar-sentabr
		2020-yil yanvar-sentabr

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, 2 144,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,4 % ga pasaygan . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 83,7 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shirin sh (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (98,9 %), Sardoba (98,4 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan Viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Guliston sh (103,4 %), Sirdaryo (97,2 %) tumanlari va Yangiyer (91,0 %) shahrida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- sentabr ylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- sentabr ylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	2 561,4	96,6	417,0	133,9	2 144,4	91,6
Guliston sh.	952,3	103,4	327,7	129,2	624,6	93,6
Shirin sh.	35,1	86,2	0,3	90,5	34,8	86,2
Yangiyer sh.	207,0	91,0	16,2	88,9	190,8	91,2
Boyovut	110,7	90,6	3,7	201,4	107,1	88,9
Guliston	70,0	87,4	2,1	80,7	67,9	87,6
Mirzaobod	194,2	96,0	36,2	498,6	158,0	81,0
Oqoltin	165,3	90,2	1,5	56,0	163,8	90,7
Sardoba	96,2	88,3	1,6	64,5	94,6	88,8
Sayxunobod	77,9	90,8	2,7	76,5	75,2	91,4
Sirdaryo	576,4	97,2	24,3	132,3	552,1	96,1
Xovos	76,3	87,6	0,8	159,8	75,5	87,1

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 33,9 % ga o'sdi va 417,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 16,3 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 144,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,4 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,7 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin shahri (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (98,9 %), Sardoba (98,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahri (34,4 %) Mirzaobod (18,6 %), Yangiyer shahrida (7,8 %) kuzatildi.



**SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 007,7 ming so'm (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,2 % ga kamaydi) va Sardoba tumani (86,7 %) hamda Sayxunobod tumani (89,3 %), Guliston (85,3 %), Boyovut (89,2 %), Xovos (86,0 %), Oqoltin (88,5 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (10 464,5 ming so'm), Yangiyer shahri (4 645,1 ming so'm) va Sirdaryo (4 471,7 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	3 007,7	94,8
Guliston sh.	10 464,5	101,7
Shirin sh.	1 866,0	85,3
Yangiyer sh.	4 645,1	89,4
Boyovut	850,5	89,2
Guliston	958,2	85,3
Mirzaobod	2 627,8	93,6
Oqoltin	3 160,9	88,5
Sardoba	1 451,0	86,7
Sayxunobod	1 002,4	89,3
Sirdaryo	4 471,7	95,5
Xovos	795,1	86,0

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 110 955,7 mln. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 60,9 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 47 150,3 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 44,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 63 805,4 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 35,7 %) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 47 150,3 mln. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 63 805,4 mln. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Siirdaryo viloyati	110 955,7	39,1	47 150,3	41,6	63 805,4	34,1
Guliston sh.	39 768,0	48,2	24 283,8	88,7	15484,2	34,9
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	11 709,2	39,0	11 709,2	85,2	0,0	0,0
Boyovut	8 048,2	40,7	1 125,5	9,1	6 922,7	46,9
Guliston	5 609,6	41,9	1 108,5	38,8	4 501,1	15,0
Mirzaobod	5 378,3	40,6	0,0	0,0	5 378,3	17,0
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	7 222,7	39,1	199,7	2,4	7 022,9	17,0
Sayxunobod	5 187,1	41,1	1 317,1	21,1	3 870,0	83,1
Sirdaryo	21 990,9	39,1	6 464,1	23,8	15 526,8	7,3
Xovos	6 041,8	37,3	942,4	15,3	5 099,4	16,1

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



692,0
mln. so'm

Tuzlamalar



13532,1
mln. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



1331,6
mln. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

9723,8
mln. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



5640,8
mln. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

628,5
mln. so'm



Tuxum

5971,7
mln. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

879,6
mln. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 47 150,3 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (13532,1 mln. so'm) to'g'ri keldi.

748,9
mln. so'm



Ziravorlar

5770,3
mln. so'm



Tovuq go'shti


2231,0
mln. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari** (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 63 805,4 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 50 850,3 mln. so'mni, qo'y va echkilar 10 216,6 mln. so'mni, otlar 2 647,7 mln. so'mni, parrandalar 90,8 mln. so'mni, tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik tadbirkorlik subyektlari

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1448,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 16,4 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 221,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 52,1 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1227,0 mlrd. so'mni (6,2 % ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik tadbirkorlik subyektlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega hududlar, Oqoltin tumani (111,0 %) Shirin shahri (110,1 %), Yangiyer shahrida (109,3 %) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1448,9	83,6	221,9	52,2	1227,0	93,9
Guliston sh.	511,0	98,0	64,7	109,6	446,3	96,5
Shirin sh.	256,2	110,1	0,0	62,3	256,2	110,1
Yangiyer sh.	52,7	109,3	0,0	0,0	52,7	109,3
Boyovut	38,4	41,5	28,1	34,0	10,3	105,7
Guliston	47,6	86,5	10,3	55,2	37,3	102,6
Mirzaobod	97,5	77,1	11,4	59,6	86,1	80,2
Oqoltin	36,4	111,0	22,4	117,7	14,0	101,6
Sardoba	31,4	44,9	28,8	42,7	2,6	109,2
Sayxunobod	62,1	47,3	30,9	30,1	31,2	108,5
Sirdaryo	270,7	74,7	13,6	46,0	257,1	77,3
Xovos	44,7	75,2	11,5	42,7	33,3	102,0

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, 1227,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 6,1 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 84,7 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyer shahri (100,0 %), Shirin shahri (100,0 %), Sirdaryo (95,0 %), Mirzaobod (88,3 %), Guliston (78,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Sardoba (8,2 %) tumaniga to'g'ri keldi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi**
Tel.: (67) 225-19-70